

**YASHASH HUQUQINING XALQARO HUQUQIY ASOSLARI VA HIMOYA  
QILISH MEXANIZMLARI**

**Bobojonov Javoxir Islom o'g'li**

*Toshkent davlat yuridik universiteti Konstitutsiyaviy huquq kafedrasи o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola yashash huquqining xalqaro hujjatlar doirasida yuridik jihatdan mustahkamlanishini tahlil qilishga bag'ishlangan. Ushbu maqolada Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, shuningdek, Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiya kabi xalqaro hujjatlar orqali yashash huquqi qanday himoya qilinishi va mustahkamlanishi yoritiladi. Xususan, har bir davlat o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarishi lozimligi va fuqarolarning yashash huquqini himoya qilish uchun xalqaro hamjamiyatning bir qator me'yoriy hujjatlar ishlab chiqqani tahlil etiladi. Maqolada, shuningdek, o'lim jazosi, qyinoqlarga qarshi kurash va inson hayotiga tahdid soluvchi har qanday xatti-harakatlardan himoya qilish masalalari ko'rib chiqiladi. Ushbu tahlil orqali yashash huquqi nafaqat milliy darajada, balki xalqaro darajada himoya qilinishi zarurligi yoritib beriladi. Xalqaro hujjatlarda yashash huquqi masalasining yuridik jihatdan mustahkamlanishi davlatlarning inson huquqlarini ta'minlash borasidagi xalqaro majburiyatlari qaratilgan. Maqola yashash huquqining xalqaro huquqiy me'yorlar orqali mustahkamlanishini yoritib, davlatlarning fuqarolarni yashash huquqiga tahdiddan himoya qilish borasidagi yuridik mas'uliyatlarini tushunish uchun nazariy va amaliy asos yaratadi. Bu maqola huquqshunoslar, tadqiqotchilar va xalqaro huquq mutaxassislari uchun dolzarb ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** yashash huquqi, xalqaro huquq, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar pakti, o'lim jazosi, qyinoqlarga qarshi kurash, inson huquqlari, xalqaro tashkilot

## **KIRISH**

Yashash huquqi inson huquqlari tizimining markaziy va ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu huquq har bir insonning tug'ma va ajralmas huquqi bo'lib, boshqa barcha huquqlarning amalga oshishi uchun asos yaratadi. Davlat va xalqaro hamjamiyat uchun yashash huquqi inson hayotini saqlash, uning xavfsizligini ta'minlash va har qanday tahdiddan himoya qilish majburiyatini yuklaydi. Shu sababli, yashash huquqi nafaqat milliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham yuridik jihatdan mustahkamlangan.

Yashash huquqi birinchi bor xalqaro miqyosda 1948-yilda qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida yuridik huquqiy asos sifatida belgilangan. Deklaratsiyaning 3-moddasida "Har bir inson yashash, erkinlik va shaxsiy xavfsizlik huquqiga ega" deb qayd etilgan. Ushbu hujjat insonning yashash huquqini himoya qilish borasida xalqaro darajada yangi qadam bo'lib, davlatlarning ushbu huquqni hurmat qilish va ta'minlash majburiyatini belgilab berdi. Keyinchalik, 1966-yilda qabul qilingan Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 6-moddasi yashash huquqini ajralmas huquq sifatida tan olgan va davlatlarga ushbu huquqni himoya

qilish uchun zarur choralarni ko'rish majburiyatini yuklagan. Ushbu xalqaro hujjatlar orqali davlatlar yashash huquqini ta'minlashga oid xalqaro majburiyatni o'z zimmalariga oldilar.

Yashash huquqining xalqaro huquqiy tizimlarda mustahkamlanishi davlatlarning fuqarolar oldidagi mas'uliyatini oshirdi. Bu huquqning xalqaro miqyosda kafolatlanishi davlatlardan inson hayotini saqlash, uning xavfsizligini ta'minlash va har qanday tahdiddan himoya qilish majburiyatini yuklaydi. Bunda davlatlarning xalqaro me'yorlarga rioya qilishi va fuqarolar yashash huquqiga to'sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etishi zarurati vujudga keladi. Misol uchun, o'lim jazosi masalasida xalqaro huquq davlatlardan faqat og'ir jinoyatlar uchun adolatli sudlov jarayoniga rioya qilgan holda ushbu jazo turini qo'llashni talab qiladi. Shu bilan birga, xalqaro hamjamiyat inson huquqlariga oid bir qator tavsiyalar va rezolyutsiyalar orqali davlatlarga o'lim jazosi amaliyotini cheklash va bekor qilish borasida ta'sir o'tkazmoqda.

Yashash huquqi nafaqat yuridik, balki axloqiy va ijtimoiy jihatdan ham davlat va jamiyat zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Davlat va xalqaro huquq tizimlarining ushbu huquqni hurmat qilishi nafaqat inson qadr-qimmatini saqlashda, balki jamiyatdaadolat, tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, yashash huquqi xalqaro hamjamiyat tomonidan o'zaro hurmat qilinishi zarur bo'lgan universal huquq sifatida qabul qilingan. Ushbu huquqning xalqaro darajada himoyalanishi davlatlararo hamkorlik, huquqiy tartibotni mustahkamlash va insonning asosiy huquqlarini himoya qilish yo'lidagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

### Metodologiya

Yashash huquqi xalqaro huquq va inson huquqlari tizimining eng muhim va o'ziga xos tushunchalaridan biridir. Ushbu huquqning yuridik jihatdan mustahkamlanishi turli xalqaro hujjatlar orqali amalga oshirilgan bo'lib, inson huquqlarini himoya qilishda bu huquqning markaziy o'rinn tutishi ko'plab ilmiy asarlarda chuqur o'rganilgan. Yashash huquqining xalqaro huquqiy tizimda yuridik jihatdan mustahkamlanishini o'rganishda bir qator metodologik yondashuvlardan foydalanildi.

Normativ metod orqali xalqaro hujjatlar va turli xalqaro tashkilotlarning qarorlari tahlil qilinadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Qiynoqlarga qarshi konvensiya kabi hujjatlar batafsil o'rganilib, yashash huquqining xalqaro huquqiy me'yorlar doirasida qanday mustahkamlanganligi va davlatlardan qanday majburiyatlarni bajarish talab etilishi tahlil qilinadi.

Qiyosiy tahlil orqali turli xalqaro hujjatlarda yashash huquqi qanday aks etgani, bu huquqning yuridik mustahkamlanishi darjasasi va usullari tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv orqali davlatlarning inson hayotini muhofaza qilishdagi yondashuvlarida xalqaro huquqqa mos bo'lgan umumiylar farqli jihatlar aniqlanadi.

Yashash huquqining xalqaro huquqiy tizimda qanday shakllanib kelgani, uning rivojlanish bosqichlari va xalqaro hujjatlarda qanday mustahkamlanganligini o'rganish uchun tarixiy-huquqiy metoddan foydalanildi. Bu usul orqali ushbu huquqning evolyutsiyasi va davlatlar tomonidan qabul qilingan xalqaro majburiyatlar to'g'risida chuqurroq tasavvur hosil qilindi.

Mazkur metodlar orqali maqolada yashash huquqining xalqaro huquqiy tizimda qanday mustahkamlanganligi, uning rivojlanish bosqichlari va davlatlarning zimmasiga

yuklatilgan majburiyatlar haqida bat afsil tahlil o'tkazildi. Bu yondashuvlar maqolaga ilmiy asos yaratib, huquqshunoslar va tadqiqotchilar uchun xalqaro huquqiy tizimda yashash huquqining ahamiyati haqida chuqurroq tushuncha beradi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yashash huquqi birinchi bor xalqaro miqyosda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida tan olindi. Ushbu deklaratsiyaning 3-moddasida "Har bir inson yashash, erkinlik va shaxsiy xavfsizlik huquqiga ega" deb qayd etilgan. Bu deklaratsiya xalqaro hamjamiyat uchun inson huquqlarini umumiyligini qadriyat sifatida qabul qilishda ilk huquqiy asos bo'lib xizmat qilgan. Deklaratsiyaning tavsiyaviy harakteriga qaramay, unda belgilangan tamoyillar keyinchalik xalqaro huquq me'yorlarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etdi.[1]

1966-yilda qabul qilingan Fuqaroviylar siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 6-moddasida yashash huquqi "ajralmas huquq" sifatida belgilangan bo'lib, davlatlardan bu huquqni hurmat qilish va himoya qilish choralarini ko'rish talab etiladi. Ushbu hujjat davlatlar zimmasiga yashash huquqini ta'minlash va uni buzilishidan himoya qilish majburiyatini yuklagan. Paktga muvofiq, yashash huquqi har bir inson uchun ajralmas qadriyat sifatida tan olinib, davlatlardan ushbu huquqni cheklovchi yoki tahdid soluvchi har qanday harakatga qarshi kurashish talab qilinadi.[2]

O'lim jazosi va yashash huquqi masalasi xalqaro huquqiy tizimda ko'p tahlil qilingan va turli davlatlar tomonidan turlicha yondashilgan masalalardan biridir. Xalqaro hamjamiyatda o'lim jazosi borasida aniq qaror qabul qilinmagan bo'lsa-da, ko'plab xalqaro hujjatlar va tashkilotlar bu jazo turini cheklash yoki bekor qilish tarafdoi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va Fuqaroviylar siyosiy hquqular to'g'risidagi xalqaro pakti o'lim jazosi masalasida davlatlarga yashash huquqini hurmat qilishni va bu huquqni faqat og'ir jinoyatlar uchun qo'llash lozimligini tavsiya qiladi.

Yevropa Kengashining Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasi va uning qo'shimcha protokollari o'lim jazosini bekor qilishga qaratilgan huquqiy asoslarni mustahkamlaydi. 1989-yilda qabul qilingan o'lim jazosini bekor qilish to'g'risidagi qo'shimcha protokol orqali konvensiya qatnashchi davlatlarga o'lim jazosidan voz kechish majburiyatini yuklagan. Bu protokol Yevropa Ittifoqi va Yevropa Kengashi hududidagi davlatlarning aksariyatida o'lim jazosini bekor qilishga olib keldi, bu esa xalqaro huquq doirasida yashash huquqining qadr-qimmatini yanada oshirdi.[3]

Xalqaro huquqda o'lim jazosini bekor qilish yoki uni cheklash masalasi inson huquqlariga hurmat qilish tamoyilini amalga oshirishning muhim elementi sifatida ko'rildi. Xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT, davlatlardan o'lim jazosi qo'llanilishida adolatli sudlov jarayoniga rioya qilishni va bu jazoning inson qadr-qimmatiga zid keladigan shafqatsiz shakllarini bekor qilishni talab qiladi. Shu tariqa, o'lim jazosi va yashash huquqi o'rtasidagi murakkab munosabat davlatlarning inson hayotini muhofaza qilish va xalqaro huquqiy tamoyillarga rioya qilish mas'uliyatini kuchaytiradi.

Qiynoqlarga qarshi kurash xalqaro huquqning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, yashash huquqini himoya qilishning asosiy elementlaridan hisoblanadi. 1984-yilda qabul qilingan Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi konvensiya davlatlardan inson hayotiga va

qadr-qimmatiga tahdid soluvchi shafqatsiz munosabat va qyinoqlarni taqiqlash majburiyatini yuklaydi. Ushbu konvensiya inson huquqlari himoyasida xalqaro hamkorlikning o'ziga xos namunasidir, chunki qyinoqlarning oldini olish va bu borada maxsus monitoring mexanizmlarini yaratish davlatlararo munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etadi.[4]

Ushbu konvensiya yashash huquqining ajralmas qismi sifatida insonning jismoniy va ruhiy daxlsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Konvensiya davlatlardan qyinoq va shafqatsiz munosabatlar uchun javobgarlikni oshirish, qyinoqlardan jabrlanganlarga yordam berish va ularga zarar qoplash mexanizmlarini yaratishni talab qiladi. Ushbu yondashuv yashash huquqi nafaqat jismoniy omonlik, balki insonning qadr-qimmatiga hurmat ko'rsatish masalalarini ham o'z ichiga olishini ko'rsatadi.

Yashash huquqining xalqaro hujjatlarda mustahkamlanishi nafaqat katta yoshdagi fuqarolar uchun, balki bolalar uchun ham katta ahamiyatga ega. 1989-yilda qabul qilingan Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 6-moddasi har bir bolaning yashash huquqiga ega ekanligini va davlatlar bu huquqni ta'minlash uchun barcha choralarни ko'rishlari kerakligini belgilaydi. Ushbu konvensiya bolalarning nafaqat jismoniy xavfsizligi, balki ularning sog'lom va farovon rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish zarurligini ko'rsatadi.

Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiya davlatlarga bolalar hayotini himoya qilish, ularning hayotiy ehtiyojarini qondirish va ularni har qanday zo'ravonlikdan himoya qilish majburiyatini yuklaydi. Bolalar huquqlarini xalqaro miqyosda tan olish va himoya qilish yashash huquqining muhim qismi sifatida qabul qilinadi va bu huquqning xalqaro huquqiy tizimda qanday kengayib borayotganini ko'rsatadi. Shu tariqa, yashash huquqi bolalar uchun maxsus himoya choralar ko'rishni talab qiluvchi asosiy huquq sifatida qaraladi.[5]

Xalqaro huquqiy tizimlarda yashash huquqining mustahkamlanishi davlatlardan ushbu huquqni himoya qilishda o'z zimmasidagi majburiyatlarni bajarishni talab qiladi. Davlatlar fuqarolarning yashash huquqiga tahdid soluvchi har qanday xatti-harakatlarga qarshi chora-tadbirlar ko'rishi va bu huquqni hurmat qilishi kerak. Davlatning bu boradagi majburiyatlari milliy qonunchilik orqali mustahkamlanishi lozim bo'lib, xalqaro huquqiy me'yorlar esa bu borada davlatga yo'l-yo'riq beradi.

Davlatlar zimmasiga yuklangan xalqaro majburiyatlар, jumladan, qyinoqlarga qarshi kurashish, o'lim jazosi qo'llanilishini cheklash, inson hayotiga zarar yetkazuvchi xatti-harakatlarni ta'qiqlash kabilar davlatning inson hayotini hurmat qilish majburiyatini kuchaytiradi. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar va inson huquqlari bo'yicha sudlar orqali davlatlarning bu majburiyatlarni bajarishi ustidan nazorat o'rnatilgan. Bunday monitoring mexanizmlari davlatlarni xalqaro huquqiy me'yorlarga rioya qilishga undaydi va inson huquqlarining buzilishi holatlariga qarshi chora ko'rishga yordam beradi.

Xulosa. Mazkur maqola yashash huquqining xalqaro huquqiy tizimda yuridik jihatdan mustahkamlanishi va uning inson huquqlari tizimidagi o'rnini tahlil qilishga bag'ishlandi.

Yashash huquqining xalqaro huquqda yuridik jihatdan mustahkamlanishi davlatlararo hamkorlik va xalqaro tashkilotlarning monitoring mexanizmlari orqali kuchaytirilgan. Bu huquq davlatlardan inson hayotini himoya qilish va fuqarolarning yashash huquqiga

hurmat ko'rsatish majburiyatini oshiradi. Ayniqsa, o'lim jazosi va shafqatsiz munosabatlarga qarshi xalqaro tashkilotlarning tavsiyalarini va rezolyutsiyalari bu huquqning himoyasini yanada kuchaytirishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, yashash huquqi xalqaro huquqiy tizimda inson huquqlari tizimining poydevori sifatida qabul qilingan. Ushbu huquqning xalqaro huquqiy me'yorlar orqali mustahkamlanishi davlatlar zimmasiga inson hayotini himoya qilishga oid yuridik majburiyatlarni yuklaydi. Shu nuqtai nazardan, yashash huquqi nafaqat huquqiy, balki axloqiy mas'uliyat sifatida ham xalqaro darajada hurmat qilinishi va ta'minlanishi lozim bo'lgan universal huquqdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.

<https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>

2. Fuqaroviylar va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt. <https://lex.uz/docs/-2640479>

3. European Convention on Human Rights.

[https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention\\_ENG](https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention_ENG)

4. Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi konvensiya. <https://lex.uz/docs/-2655293>

5. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya

<https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-child>